

2023  
2-son

# TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYA

ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal



ISSN 2181-8274

компетенцияларини шакллантириш.....	283	
<b>Gulruh Majidova.</b>		
Activation of critical thinking skills in teaching english in digital learning environments.....	287	
<b>Abduqodir Norboyev.</b>		
Ta'lif muassasalarida jismoniy tarbiya va sport tadbirlarini o'tkazish metodikasi.....	291	
<b>Qunduz Alimova.</b>		
Mediata'lif muhitida bo'lajak maktab menejerlarini o'qitish .....	294	
<b>Gulruh Majidova.</b>		
Using modern approaches in teaching english.....	297	
<b>Olima Muxidova.</b>		
O'qituvchining transversal kompetensiyasi uning kasbiy va shaxsiy sifatlarining namoyandasasi sifatida .....	300	
<b>Iroda Ergasheva.</b>		
Boshlang'ich sinif o'qish darslarida nasriy asarlar ustida ishlash metodikasi .....	303	
<b>Nargiza Nurillaeva, Mubarakkhon Zokirova, Nargiza Khasanova</b>		
Evaluation and analysis the involvement of a fibrinolysis inhibitor of the coagulation system in the progression of coronary heart disease chd.....	307	
<b>Гулназа Шодиева.</b>		
Бошлангич синф ўқувчиларининг ўқув-билиш компетенцияларини pirls баҳолаш дастури талаблари асосида шакллантириш .....	311	
<b>Dilrabo Ashurova.</b>		
Abduqodir Shakuriyning pedagogik faoliyati.....	313	
<b>Murodjon Abdurahmanov.</b>		
The method of training the flexibility of the joints in children who have started practicing karate.....	316	
<b>O'tkir Achilov.</b>		
Oliy ta'lif muassasalarida pedagoglar talabalarning o'quv jarayonida elektron axborot ta'lif resurslaridan foydalanib baholashning funksionallik didaktik tamoyili.....	319	
<b>Жамшидбек Отажонов, Эвелина Усарова.</b>		
Совершенствование коммуникативных способностей у детей дошкольного возраста .....	322	
<b>Фарида Тохирова.</b>		
Тиббий педагогика таълим йўналиши талabalari касбий тафаккурини ва касбga бўлган кизиқишини шакллантиришнинг педагогик-психологик хусусиятлари.....	325	
<b>Феруза Шакарова, Гузал Ядгарова.</b>		
Формирование языковой компетенции студентов при обучении языку специальности .....	328	
<b>Dilorom Abduxamidova.</b>		
Pedagog tarbiyachilarni turli millatga oid bolalar bilan ishlashga o'rgatish.....	331	
<b>Zuxra Akramova.</b>		
Boshlang'ich sinif o'quvchilari mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga amaliy yondashuv.....	334	
<b>Немат Худайбердиев.</b>		
Туристик-мехмонхона мажмуаларининг иктисодий бирликлар сифатидаги моҳияти.....	338	
<b>Коссе Рулен.</b>		
Методика обучения тренировки задачи содержания учебно-тренировочного процесса.....	402	
<b>Baxtiyor Haydarov.</b>		
Bolalar jismoniy faolligini noan'anaviy vositalar asosida tarbiyalashning pedagogik mexanizmlarini .....	405	
<b>Муслима Бозорова.</b>		
Этнопедагогик компетенция бўлажак ўқитувчининг этник-маданий тайёргарлиги асоси сифатида.....	409	
<b>Javlonbek Zulxaydarov.</b>		
Pedagogik ta'lif klasteri sharoitida bo'lajak mutaxassislarini kasbga tayyorlashning individual yondashuvi .....	413	
<b>Фароғат Жахонгирова.</b>		
"Тарбия" фанини ўқитиш жараёнida "сунани термизий" асари асосида ўқувчиларни маънавий-ахлоқий тарбиялашни ривожлантириш uslubiy имкониятлари.....	416	
<b>Жамшидбек Отажонов, Нигора Ҳакимова</b>		
Развитие логического мышления у детей дошкольного возраста .....	418	
<b>Muxabbat Mirazimova</b>		
Oilada ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirish.....	421	
<b>Odinaxon Usmonova.</b>		
Kichik yoshli maktab o'quvchilariga ona tili va o'qish savodxonligini o'rgatishda mnemotexnikadan foydalanish.....	423	
<b>Muxlisa Omonova.</b>		
O'qituvchi pedagogik tafakkurining mohiyati va tavsifi .....	426	
<b>Мукаддас Ахмедова, Дилорам Фаттахова.</b>		
О формах и методах проектного обучения.....	429	
<b>Gulchexra Ergasheva.</b>		
Bo'lajak mutaxassislarining kasbiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish metodikasi .....	432	
<b>Хокимбек Ахмадбеков.</b>		
Хорижий давлатлар тажрибаси асосида почта алоқасини тизимли автоматлаштириш.....	434	
<b>Maftuna Normatova.</b>		
Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar bilan olib boriladigan logopedik ritmika mashg'ulotlari.....	437	
<b>Хурсаной Очилова.</b>		
Taъlim klasteri muҳitida bўlajak mutaxassislarini ustoz-shogird tizimini асосида касбий фаолиятга тайёрлаш технологияси .....	439	
<b>O'rinoiboy Nurtayev.</b>		
Badiiy ta'lif tizimida pedagogik o'qitish jarayonini texnologiyalashtirishning o'ziga xos xususiyatlari .....	442	
<b>Робия Тошибоева.</b>		
Проект «Кадастр – 2034»: перспективы и прогнозы осуществления в узбекистане .....	444	
<b>Sanobar Ashurova.</b>		
Professional ta'limga modulli-kompetentli yondashuv asosida ta'lif jarayonini loyihalash.....	448	
<b>Матлюбахон Назаралиева.</b>		
Ingлиз tilida integratsiyalangan receptiv nутқ малакаларини шакллантириш юзасидан кўрсатма ва маслаҳатлар .....	451	
<b>Elmurod Soatov.</b>		
Kurash va milliy jang san'atining texnik jihatlari uyg'unligining tarixiy omillari .....	454	
<b>Фарида Тохирова.</b>		
Тиббий педагогика таълим йўналиши талabalari касбий тафаккурини ва касbga бўлган кизиқишини шакллантириши аспектлари .....	457	
<b>Nilufar Rasulova, Zebo Sattarova, Dilfuza Mirdadayeva.</b>		
Prevention of important non-communicable diseases among the population: uzbekistan and foreign experience .....	463	
<b>Хуршед Рузиев.</b>		
Чет tilini ўқитиш жараёнida талabalardan axborot-коммуникация компетенциясини шакллантиришда изчилилкни амалга ошириш .....	466	
<b>Ойбек Жиянов.</b>		
Педагогик технология тушунчаси ва янги педагогик технологиянинг ўқитиш принциплари .....	469	
<b>Mahfuza Sa'dullayeva.</b>		
Tarix ta'limga mnemonika: xotiradan to'g'ri va noto'g'ri foydalanish .....	471	

ахборотларнинг қисмлари, шунингдек, уларнинг ўзлари орасидаги боғланишлар қанчалик мустаҳкам (бой) бўйса, демак, ана шундай мустаҳкам билимларга эга бўлинади. Бу боғланишларнинг энг юқори даражада мавжуд бўлиши педагогик технологиянинг қуйидаги қоидаларига биноан амалга оширилади:

1. “Эквивалент амалиёт” қоидаси. Ўқитувчининг ўқитиши жараёнида кузланган ҳаракатлари ва унинг яқуний тест топшириғида белгиланган ўқув ҳаракатлари айнан бир хил шароитда ўтказилиши лозим.

2. “Аналогик амалиёт” қоидаси. Ўқувчилик тест (имтиҳон)да қандай ҳаракатларни кўрсатишлари талаб қилинса, улар ўқув жараёнида ҳам шунга ўхшаш

ҳаракатларда машқ қилишлари мумкин.

3. “Натижани билиш” қоидаси. Ҳар бир ўтказилган назорат натижаси ўқувчига тезлик билан маълум қилиниши зарур. Бу қоида Б.Скиннер ва Э.Торндайклар томонидан дастурланган таълимда ҳам қўлланган.

“Ижобий мустаҳкамловчи реакциялар” қоидаси. Ўқувчининг эришган ҳар бир ютуғига ўқитувчи ўз вақтида эътибор қилиб, рағбатлантириб бориши кепрек. Ўқувчиларнинг нотўғри ўқув ҳаракатлари жазолланмайди. Бу ҳолда ўқувчиларни: “Яна бир марта уриниб кўр”, “Бу бўлимни бошқатдан ўрганиб чиқишинг лозим” каби илҳомлантирувчи сўзлар билан уларни ишлашга ундаши даркор.

### ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. А.Эрназаров. Ўқув машғулотларини лойиҳалаш”. Ўқув-услубий қўлланма. – Т.: Тафаккур бўйстони, 2001. – 202 б.
2. К.Ишматов. Илғор педагогик технологиялар. – Наманган, 2004. – 95 б.
3. Беспалко В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. – М.: «Педагогика», 1995. – 412 с.
4. Фарберман Б.Л. Прогрессивные педагогические технологии. – Т., 2006. – 160 б.
5. СОРОС ҳалқаро очиқ жамиятининг “Танқидий фикрлашни ривожлантириш асослари” фанлараро дастури. – Т., 2004. – 282 б.



## TARIX TA'LIMIDA MNEMONIKA: XOTIRADAN TO'G'RI VA NOTO'G'RI FOYDALANISH

**Mahfuza Sa'dullayeva,**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti  
O'zbekiston tarixi kafedrasasi o'qituvchisi

### **Annotation**

Ushbu maqolada xotirada mnemonikaning zarurati, uning rivojlanish bosqichlari, bu bo'yicha qarashlar va tarix fanlaridagi bilimlarni rivojlantirishdagi ahamiyati keltirib o'tilgan. Shuningdek, mnemonik usullardan foydalanish va mukammal xotirani shakllantirish usullari haqida fikr-mulohaza yuritilgan bo'lib, tarix ta'limdi mukammal xotirani shakllantirish texnikasi va uning amaliy usullari ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** mnemonika, xotira, eslab qolish, visual, kinestetik, mnemonik texnika, qisqa muddatli xotira, uzoq muddatli xotira, ma'lumotlar bazasi, yodlash ko'nikmalar, mnemonik usullar.

### **Аннотация**

В данной статье упоминается необходимость мнемотехники в памяти, этапы ее развития, взгляды на это и ее значение в развитии знаний в исторических науках. Также рассмотрено использование мнемических методов и методов формирования совершенной памяти, а также разработана методика формирования совершенной памяти в историческом обучении и ее практические методы.

**Ключевые слова:** мнемоника, память, припомнание, визуальный, кинестетический, мнемонический прием, кратковременная память, долго временная память, база данных, навыки запоминания, мнемонические приемы.

### **Annotation**

In this article, the necessity of mnemonics in memory, its stages of development, views on this and its importance in the development of knowledge in historical sciences are mentioned. Also, the use of mnemonic methods and the methods of forming a perfect memory were considered, and the technique of forming a perfect memory in history education and its practical methods were developed.

**Keywords:** mnemoniks, memory, recall, visual, kinesthetic, mnemonic device, short-term memory, long-term memory, database, memorization skills, mnemonic devices.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan belgilab berilgan “ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlar tayyorash”dek [1, 70] ustuvor

vazifalar ijrosini ta'minlashda ta'lif mazmuniga qo'yilgan talablarни замонавиylashtirish, ilg'or xorijiy tajribalarni o'zlashtirish orqali o'zlashtirilgan bilimlarni hayotiy vaziyatlarga nisbatan muvofiqlashtirish hamda oliv ta'lif muassasalari talabalarining bilim va ko'nikma hosil qilishlarida turli замонавиy metodlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bunda tarix ta'lifimida qadimdan qo'llanib kelingan va g'arbda juda mashhur bo'lgan mnemonika usulini joriy etish zarur. Mnemonika usulidan nafaqat g'arb olim-u dohiylari, balki sharq olamida ham buyuk allomalar keng va samarali foydalanishgan.

G'arbda замонавиy tadqiqotchilaridan M.Ziganov, V.Kozerenko [2], T.B'yuzen [3], S.Matveyev [4], M.A.Zyablisheva [5], M.V.Usachev [6], G.A.Chepurnoylar [7] o'z ilmiy izlanishlarida mnemonikaning nazariy asoslar hamda uni amaliyatda qo'llash bilan bog'liq usullari bo'yicha bayon etgan.

Mnemonika so'zi qadimgi antik davrga borib taqaladi. Mnemonika so'zi yunon xudosi "Mnemosin", ya'ni "xotira" xudosi so'zidan olingan. Mnemonika bundan taxminan 2500 yil oldin Yunonistonda paydo bo'lgan, keyinchalik rimliklar ham o'z faoliyatlarida bu usullardan keng foydalana boshlashgan. Mnemonika bilan antik davr allomalari shug'ullanib, juda katta yutuqlarga erishgan. Jumladan, Sitseron, Suqrot, Arastu, Arximed va boshqalar antik davr olimlarining faoliyatlarida mnemonikaning elementlarini ko'rish mumkin. Dastlab Suqrot qarashlarida bu jarayon aniq seziladi, sababi bu davrda kuchli notiqlarga talab yuqori edi. Notiqlar oldida katta-katta matnli jumllalarni eslab qolish va xalq oldida so'zlash kabi ma'suliyatlari vazifalar turgan. U bunda o'z uyidagi kerakli buyumlarga barcha narsalarni so'zlariga bog'lab chiqqan va nutq so'zlaganda shu buyumlarni esga olgan, xolos. Bu juda qulay va oson xotirada muhrlanadigan jarayondir.

XVI asarda yashagan Jordano Bruno ham mashhur mnemonist bo'lgan, u o'zining mashhur "G'oyalar soyalarini to'g'risida" nomli asarida mukammal xotira to'g'rida batafsil to'xtalib o'tgan va bu asarni Jordano Bruno qirol Genrix III ga sovg'a qilgan. Mohir notiqning eslab qolish qobiliyatini sehrgarlikka ham yoyishganligi tarixiy ma'lumotlarda qayd etilgan [8, 7]. Uning qarashlari o'z davrida hayratlanarli darajada edi. Shu sababdan ham u ko'proq o'z iste'dodi sirlarini namoyon qilishdan o'zini to'htatgan.

Mnemonika – kerakli bo'lgan ma'lumotlarni yodda qolishini oson usullar orqali singdirishdir, assosatsiyalar shakllanishi jarayonida xotiradagi hajmni oshiradigan maxsus texnika va usullar to'plami mavhum obyektlar va faktlarni vizual, eshitish va kinestitik tasvirga ega bo'lgan ma'lumotlar bilan bog'lash, yodlashdir.

Tarix maktab fanlari ichida eng qiziq va o'ziga o'quvchilarini tez jalb qiladigan fan bo'lishi bilan bir qatorda, qiyin va murakkabdir. Bu fanni puxta o'rganish uchun yillar, davarlar xronologiyasi, shaxslar va joy nomlari shu qadar ko'pki, bu o'quvchidan o'ta zukkolik va mukammal xotirani talab qiladi. Bu esa xotirani rivojlantirish muammosini tug'diradi,

xotiraning rivojlantirish usullari uni soddalashtirish pedagogik muammoga aylanadi. Bu muammo qadim замонлардан buyon mavjud bo'lib, bugungi kunda maktab ta'lifimida uslublarning o'zgarishi bilan ularga qo'yilgan talablar ham o'zgarib bormoqda. Keng axborot olamidagi замонавиy dunyoga qadimdan mavjud bo'lgan mnemonika zarurati yanada oshib bormoqda. Tarix ta'lifimida ham mnemonikaning ahamiyati ortib bormoqda, zero murakkab darajali tarix fanlarni o'zlashtirishni mnemotexnik usullarsiz tasavvur qilish qiyin. Mnemonika shunday bir ummonki, unga g'arq bo'lish hech gapmas. Mnemonik usullar ustida ko'plab g'arb va sharq olimlari izlanishlar olib borishgan.

Tarixni o'rganish, yodlash, takrorlab turish zarur, bu talabalar uchun muammo, qiyin jarayon kabi anglashiladi. Shu sabab ham o'quvchilarga mnemonik usullardan qulay va samarali foydalanishda dastlab motivatsiyalar berish zarur. O'qituvchi uchun qiyin vazifa qisqa vaqt ichida katta hajmdagi ma'lumotlarni yetkazib berishdir. Tarix ta'lifimida esa bu vazifa aynan mnemonik texnikalar orqali samarali va qiziqarli qilib amalga oshiriladi. Bu jarayonda ta'lifning barcha qiziquvchilari uchun muvaffaqiyatli yechimi mnemionikadir. Bugungi kunda ta'lifning eng muhim xususiyati uning dinamikligidadir. Jarayonlarning tez-tez o'zgarib turishi esa bir metodik asosning o'rnini boshqa zarurati mavjud metodologiya bilan almashtirish yoki uni to'ldirib borish bilan belgilanadi. Bu o'zgarishlar insoniyat hayotining barcha sohalarida namoyon bo'lmoqda.

Xotira tabiiy jarayon bo'lishi bilan birga, psixologik hodisadir. Xotirani ikki turga ajratish mumkin: qisqa muddatli xotira; uzoq muddatli xotira [3, 78]. Qisqa muddatli xotira ongda mavjud bo'lgan faoliyatni amalgaga oshirish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan xotira majmuidir. Bu xotira cheklangan hajmga ega. 1960-yilda tadqiqotchi olimlar Miller, Galanter va Pribramlar ichki xotira atamasini fanga olib kirdi. Ularning nazariyalari aynan qisqa muddatli xotira haqida edi [3, 82].

Uzoq muddatli xotira cheklanmagan ma'lumotlar basasi sanalib, ma'lumotlarni saqlash va bir necha tizimlarda olib borishdan iborat. Qachonki ma'lumotlarga e'tibor qaratilsa, ma'lumotlar xotirada saqlanadi. Xotira qanchalik mahoratli bo'lmasin, yangi ma'lumotlarni saqlab qolish uchun unga vaqt sarflanadi. Ma'lumot va vaqt miqdori teng bo'lishi esa mnemonikada o'ta muhim jihat.

Mnemonik texnologiyalarni tahlil qilgan holda, xotirani yaxshilashning 6 ta ilmiy usulini taqdim qilish mumkin:

1. Mujassamlangan bilim;
2. Xotirani yaxshilash qoidalari va usullari;
3. Korsi vizual-fazoviy testi: tavsifi va qo'llanilishi;
4. Xotiraning nonmonik qoidalari;
5. Ma'lumotni qanday eslab qolish kerak: foydali materiallar tanlovi;
6. Ta'lifdagagi kognitiv yukni qanday kamaytirish mumkin.

Xotiraning mavjud ushbu turlari inson uchun muhim bo'lgan mukamallik sirlarini ochadi, shu sababli undan xato-

larsiz foydalana olish qobiliyatini shakllantirishi lozim.

Talabalar faniga oid bo‘lgan ma’lumotlarning barchasini eslab qolishda ko‘plab muammolarga duch kelayotgani sir emas. O‘quv materiallari ketma-ketligini yodlash, tarixiy voqealarni eslab qolishda kuzatildi. Ayniqsa, tarixiy voqealar uchun bu juda muhim. Talabalar bir martalik idrokdan eslab qolishlari mumkin bo‘lgan ma’lumotlar miqdori ham juda cheklangan. Shu munosabat bilan xotira holatini baholash diagnostikasi o‘tkazilishi lozim, bu ularning unutuvchanligi darajasini ko‘rsatadi. Kozerenko qarashiga asoslansak, mnemonika yordamida o‘quvchilarda vizual fikrlash asosida yodlash ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha ishlarni boshlash mumkin.

Fanlarga oid ma’lumotlar va tarixiy materiallarni xotirada saqlashga oid mnemonik talablarni “O‘zbekiston tarixi” va “Jahon tarixi” fanlari asosida ko‘rib o‘tsak. Ma’lumki “O‘zbekiston tarixi” va “Jahon tarixi” fanlari katta davrlar, voqealar, tarixiy jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Bu fanlar doirasida katta konseptual jarayon, ko‘plab sanalar va voqealar, shuningdek, ko‘plab tarixiy shaxslar, shahar-davlatlar bo‘yicha ma’lumotlar mavjud. Ba’zan bitta mavzuda taxminan 20 tagacha atama va tushunchalar, 20-25 tagacha turli xil voqealar va 10 tagacha shaxslar mavjud bo‘lib, o‘quvchilarning bu ma’lumotlarni xotirada saqlab qolishi, olgan bilimlari vaqt-vaqt bilan belgilangan me’yorlarga ko‘ra tekshiriladi, imtihon qilinadi. Talabalar o‘quv materialini takroriy qaytarish orqali o‘rganishga harakat qilishadi va buning samaradorligi sezilmaydi. Buning natijasida o‘quvchining akademik ko‘rsatkichlari o‘z-o‘zidan pasayib ketadi.

Talablarimiz samarasini o‘laroq biz talabaga “raqamli avlod” deb nom berdik, u yorqin vakil bo‘lib, dunyoning majoziy va virtual rasmida ustunlik qila oladigan qiyofada shakllanishi zarur. Ushbu yangi avlod “global bolalar” deb nomlanadi va ular uchun cheksiz ma’lumot olish va qayta ishslash imkoniyatlari mavjud [4, 49]. Globallik va tanlov erkinligi tufayli ularga bilim va aloqalarni cheksiz kengaytirish imkoniyati beriladi. Buning uchun o‘z-o‘zini tashkil etish, o‘z-o‘zini tarbiyalashning yangi fazilatlari va mexanizmlari zarur bo‘ladi. “Ko‘pincha odamlar o‘z xotiralarini savodsiz ishlatishadi” [6, 56], deya ta’kidlagan Oleg Kuzinning fikriga qo‘shilgan holda aytish mumkinki, tarix fanlariga oid bilimlarni mustahkamlashning muhim omillaridan biri xotiradan to‘g‘ri foydalanishdir.

Tarix ta’limida xotiradan to‘g‘ri foydalanishda eng katta yordamchi bu mnemonika usullari va ulardan foydalanish bo‘lib, uning samaradorligini quyidagi usullardan ko‘rish mumkin. Yozish bu eng ko‘p va keng tarqalgan

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасиниянада ривожлантириш бўйича Ҳаркатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони//Ўзбекистон Республикаси Конун хужжатлари тўплами, 2017 йил 6-сон.
2. Зиганов М, Козеренко В. Мнемотехника. Запоминание на основе визуального мышления. – М.: Школа рационального чтения, 2008. – 294 с.
3. Бъюзен Т. Супер - память: как быстро добиться серьезных успехов в развитии памяти. 6-е изд. – Минск: “Попурри”, 2008. – 208 с.

usul, ammo ko‘pchilik buning mnemonik usul ekanligini bilmaydi va eskilik sarqti sifatida qaraydi, bu albatta noto‘g‘ri yondashuvdir. O‘tmishdagagi taniqli shaxslar faoliyatida kundaliklar yuritganliklari, ularda unutishlari mumkin bo‘lgan hamma narsani yozib borishgani ma’lum. Ular orasida Tomas Edison, Nikola Tesla, Leonardo da Vinci, Benjamin Franklin, Genri Ford, Mark Avreliylarni keltirib o‘tish mumkin. Ammo ular hatto xotiralari bilan maqtanishlari mumkin edi. Ularning tajribalaridan kelib chiqib, kundalik tutish va kun davomida o‘rgangan barcha bilimlarni kuniga kamida bir marta yozib olish samarali usullardan deyish mumkin. Bu juda kerakli ma’lumotlarni hazm qilishga yordam beradi, chunki inson o‘ylagandan sekinroq yozadi va buni aniq ongli ravishda bajaradi.

Xotirani kuchli rivojlanganligini aniqlash va xotira bilan unga qulay tilda “gaplashish” uchun ongli ravishda harakat qilish muhim. Xotiraning qaysi turi dominant ekanligi ko‘pincha maktab ko‘rsatkichlarida aks etadi. Xotirani mustahkamlashning bir qator usullari bu ko‘rsatkichlarni oshirishga yordam beradi.

Takrorlash usuli ham eng muhim usullardan biri bo‘lib, ayniqsa, o‘rganayotgan ma’lumotlar yangi bo‘lsa, uni kamida uch marta takrorlash maqsadga muvofiq. Bu usuldan yunon faylasuflari hamda sharq allomalari keng foydalangan. Suqrot, Platon, Beruniy, Xorazmiy, Ibn Sino va hattoki Imom al-Buxoriy ham takrorlashda juda kuchli tajriba orttirish mumkinligini ko‘p ta’kidlab o‘tg'anlar.

Mnemonikaning beshta asosiy usuli faol sanaladi, bular lingvistik, visual, jismoniy, javob, og‘zaki usullar.

Lingvistik mnemonika rag‘batlantiruvchi so‘z va kalit so‘z kabi usullarni o‘z ichiga oladi. Bunday usullar orqali yangi so‘zlarni, tushunchalarni, tanish so‘zlar, iboralar bilan bog‘lashga asoslangan bo‘ladi. Bu jarayon natijasida ma’lumotlarni yanada tezroq yodlashga erishiladi.

Vizual mnemonika aniq maqsadli konsepsiya (masalan, simvolizm, piktografiya) bilan bog‘lanish uchun tasvirlar yoki vizualizatsiyadan foydalanish orqali amalga oshiriladi.

Og‘zaki mnemonika birinchi harf mnemonikasi, qofiyalar va qo‘shiqlar va hikoyalarni o‘z ichiga oladi.

Xulosa, ushbu ish jarayonida ko‘rinib turibdiki, tarix ta’limida mnemonik usullardan foydalanib dars jarayonlari olib borilsa va o‘quvchi talabalarga xotiradan to‘g‘ri foydalanish texnikalarini o‘rgatilsa, bilim ko‘rsatkichlari yanada yuqori natijalarni namoyon qiladi. Shu sabali tarix ta’limida ta’lim oluvchilarga faqat tarixiy ma’lumotlarni berish bilan kifoyalanmay, uni qanday oson va qulay xotirada saqlab qolish usularini ham o‘rgatish maqsadga muvofiq.

4. Матвеев С. Феноменальная память: Методы запоминания информации. – М.: “Альпина Диджитал”, 2012. – 15 с.
5. Зяблесева М.А. Сделай себя сам. Мнемотехника. Секреты суперпамяти. – М.: Эксмо, 2009. – 144 с.
6. Усачев М.В. Лучше, чем суперпамять. Эффективные приемы мнемотехники. – Ростов: Феникс, 2016. – 224 с.
7. Бура Л.В., Чепурной Г.А. Образовательная мнемотехника: технология эффективного усвоения информации: учебно-методическое пособие / Чепурной Г.А., Бура Л.В. – Севастополь: РИБЕСТ, 2015. – 115 с.
8. Джордано Бруно Ноланец, Титлин Л. И. О тенях идей, сообщающих искусство изыскания, нахождения, суждения, упорядоченного рассмотрения и устремления к внутреннему записыванию // Vox. Философский журнал. – 2016. – № 21. – 27 с.



## РОЛЬ КЛАССНОГО РУКОВОДИТЕЛЯ В ПОВЫШЕНИИ КАЧЕСТВА ОБУЧЕНИЯ

**Мухайё Байбаева,**

Доктор педагогических наук, и.о.профессор кафедры  
«Педагогика» Ташкентского государственного  
педагогического университета имени Низами;

**Мадина Мажидова,**

Магистрант 1 курса по специальности «Педагогика и  
психология» Ташкентского государственного  
педагогического университета имени Низами

### **Аннотация**

В статье рассматривается эффективность работы классного руководителя определяется тем, в какой мере учебно воспитательный процесс обеспечивает развитие творческих способностей каждого ребёнка, формирует личность и готовит её к познавательной и общественно-трудовой деятельности. В то же время в условиях модернизации образования на первый план всё-таки выходит показатель уровня и качества обученности выпускника, что подтверждается критериями оценки эффективности деятельности образовательного учреждения и формами итоговой аттестации. Категория «уровень воспитанности» категория абстрактная, а категория «уровень обученности» конкретна.

**Ключевые слова:** процесс, классный руководитель, воспитание, образование, категория, развитие, эффективность, личность, оценка.

### **Annotatsiya**

Maqolada sinf rahbari ishining samaradorligi ta'limgarayoni har bir bolaning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishni ta'minlash, shaxsn shakllantirish va uni kognitiv va ijtimoiy va mehnat faoliyatiga tayyorlash darajasi bilan belgilanadi. Shu bilan birga, ta'limgari modernizatsiya qilish sharoitida oliy ta'limgarayoni va sifati ko'rsatkichi hamon birinchi o'rinda turadi, bu ta'limgari muassasasi faoliyatini samaradorligini baholash mezonnari va shakllari bilan tasdiqlanadi. Yakuniy attestatsiyadan "Tarbiya darajasi" kategoriyasi mavhum kategoriya, "ta'limgarayoni" kategoriyasi esa konkretdir.

**Kalit so'zlar:** jarayon, sinf rahbari, tarbiya, ta'limgarayoni, rivojlanish, samaradorlik, shaxs, baholash.

### **Annotation**

The article discusses the effectiveness of the class teacher's work is determined by the extent to which the educational process ensures the development of the creative abilities of each child, forms a personality and prepares it for cognitive and social and labor activities. At the same time, in the context of the modernization of education, the indicator of the level and quality of graduate education still comes to the fore, which is confirmed by the criteria for evaluating the effectiveness of the activities of an educational institution and the forms of final certification. The category "level of upbringing" is an abstract category, and the category "level of education" is concrete

**Keywords:** process, class teacher; upbringing, education, category, development, efficiency, personality, evaluation.

В школе важно создать атмосферу интереса к знаниям, стремление искать, исследовать, творить, разрабатывать техническую смекалку. Необходимо направить педагогический коллектив на поиски разнообразных путей и приемов поддержания познавательного интереса учащихся в их деятельности. Контроль за учёбой учащихся. И тут часто возникает вопрос: а как контролировать главную деятельность ребенка в школе

– его учебу? Что еще может делать для этого классный руководитель, кроме привычного просматривания классного журнала, работы с дневником. Беседа с учителями-предметниками по поводу успеваемости и дисциплины учеников и последующих за этим "серезных разговоров" с учениками и их родителями? Классный руководитель должен стремиться добиться того, чтобы ребенок сам стремился повысить успеваемость